



Farg'ona viloyati Quva tuman xalq ta'limi bo'limi mudirining
BUYRUG'I

10«8»2022 yil

48-11-156-XT/2022-son

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH
SHARTNOMASI

Umarjon Binokor MCHJ (keyingi

(yuridik shaxsning nomi)

o'rinlarda "Ijrochi" deb yuritiladi) nomidan Ustav

(Ustav, ishonchnoma va h.k)

asosida harakat qiluvchi Raxbar B.Boyqo'ziev bir

(vazifasi, familiyasi, ismi)

tomondan va Quva tumani Xalq Ta'limi bo'limi (keyingi

(yuridik shaxsning nomi)

o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan ustav asosida

(Ustav, ishonchnoma va h.k)

harakat qiluvchi Raxbar N.Komilov ikkinchi

(vazifasi, familiyasi, ismi)

tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Ijrochi Buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklga ega bo'lmagan quyidagi: Quva tumani Xalq ta'limi tasarrufidagi 32-maktab binosini joriy ta'mirlash ishlari xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

2. XIZMAT HAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun Buyurtmachi shartnomaviy baho to'g'risidagi bayonnomaga muvofiq 198 000 000 so'm, shu jumladan, oldindan to'lov tartibida mazkur summaning 30 foizini 59 400 000 so'm miqdorida to'laydi.

2.2 Ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan qo'yiladigan iqtisodiy, texnik, tashkiliy va boshqa talablar: xizmatlar shartnoma kuchga kirgandan so'ng oldindan 30% to'lov 10 bank ish kunida pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ish xizmatlar 30 kun davomida yakunlangandan so'ng yakuniy 70 % to'lov 20 bank ish kunida pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. XIZMATLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI

3.1 Ijrochi ushbu shartnomaning 1.1 bandida nazarda tutilgan xizmatlarni shaxsan o'zi

ko'rsatishi shart.

3.2. Xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng Ijrochi Buyurtmachiga ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi va unga hisobot hujjatlarini ilova qiladi.

3.3. Xizmat natijalaridan qoniqmagan Buyurtmachi dalolatnomani olgan paytdan boshlab 10 kun ichida Ijrochiga xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin.

3.4. Buyurtmachining radnomasi asosli deb topilgan taqdirda, taraflar ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar va unda qo'shimcha ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlar ro'yxati va ularni bajarish yoki bajarishni to'xtatish muddatlarini ko'rsatadilar.

3.5. Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yo'qligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi bu haqda Ijrochini xabardor qilishi va u bilan birga zaruriy choralarni ko'rishi shart.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI. NIZOLARNI HAL QILISH

4.1. Ijrochi ishni shartnomada ko'rsatilgan muddatda bajarmagan, lozim darajada bajarmagan taqdirda, kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5% i miqdorida peniya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.2 «Buyurtmachi» shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatdan kechiktirib yuborgan xolda xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summaning 0,4 % i miqdorida peniya to'laydi. Lekin to'langan penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan maxsulot to'lov summasini qiymatining 50% dan ortik bo'lmasligi lozim.

4.3. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlari hamda mazkur shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.4. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlık sudida uning Reglamentiga asosan hakamlık sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlık muhokamasi tarafi hakamlık sudining hal qiluv qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida vakolatli sudga ushbu hal qiluv qarorini bekor qilishni so'rab ariza berish yo'li bilan hakamlık sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashishi mumkin.

5. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

5.3. Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini to'liq to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.4. Ijrochi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararining hammasini to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga _____ kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

6. TARAFLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

Ijrochi:

Umarjon Binokor MCHJ

Hisob-kitob raqami

20208000705328961001_

STIR_308092940

MFO:01037 Qiziltepa qo'riqchilik
bank Quro (vakolati sh... F.I.Sh. va imzosi)

Raxbar



Buyurtmachi:

_Quva tumani XTB

Hisob-kitob raqami

100022860302187092100075075

STIR 2001 23674 Moliya Vazirligi Fax


VE 23Yoz 2002100001010 INN: 201122919

Moliya bank Tashkent sh. (vakolati Moliya F.I.Sh. va imzosi)

Raxbar

N.Komilov



Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylicini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.		
	Imzolovchi F.I.SH.	NODIRJON KOMILOV POZILJONOVICH
	Imzolangan sana	10 abr 2022 17:21
	Hujjat kodi	OY6654151030
	Hulosa kodi	CC8624245878

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

OY6654151030

1. Loyiha turi: Shartnoma.
2. Loyiha nomi: "Haq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida"
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Quva tumani Xalq ta'limi bo'limi va "Umarjon Binokor" MCHJ tomonidan
2022-yil 01-avgust (qayta yuborilgan sana 09-avgust) kuni dasturga kiritilgan.
4. Loyiha bo'yicha taklif:

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga;
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Protsessual kodeksiga;
3. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Quva tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:

S.N Yoqubov





Кўва туман Халқ таълими бўлими йиғилиш

БАЁНИ № 16

10.08.2022 йил Кўва тумани

Кўва туман Халқ таълими бўлими тасарруфидаги мактабларни жорий таъмирлаш билан энг яхши таклифни танлаб олиш учун куйилган 23.07.2022- йил кунги лот № 22110012127233 бўйича эълон муҳокама қилиш комиссияси

16 сонли йиғилиш баёни

Катнашдилаб

Йиғилиш раиси:

Н.Комилов

Ўзгалар:

Т.Мирзаматов

Э.Рузиев

М.Азимова

Р.Бозорбоса

Йиғилиш котиби : М.Комалжонов

КУН ТАРТИБИДАГИ МАСАЛА:

2022 йил Кўва туман Халқ таълими бўлими тасарруфидаги мактабларни жорий таъмирлаш билан 2022 йил режасига асосан қуйилган 23.07.2022-йил кунги лот № 22110012127233 бўйича эълон муҳокама қилиш тўғрисида


Кун тартибидаги масала юзасидан Кўва туман Халқ таълими бўлими томонидан ўтказилган эълон бўйича Кўва туман Халқ таълими бўлими мудирини Н.Комилов сўз олиб танлов "Умаржон Бинокор" МЧЖ талабига мос келганини айтиб ўтди.

Шунга асосан юқоридагиларни инобатга олиб комиссия аъзолари қарор қилади.

1. Қува туман Халқ таълими бўлими комиссия аъзолари томонидан муҳокама кунлари ҳеч қандай эътирозлар тушмаганлиги ҳамда ҳеч кимда эътирозлар йўқлиги айтиб ўтилди.

2. Қува туман Халқ таълими бўлими комиссия аъзолари томонидан танлов "Умаржон Бинокор" МЧЖ талабларига мос тушган ушбу ташкилот билан шартнома тузилсин ва уч кун ичида махсус давлат харидлари махсус ахборот парталига жойлаштириш вазифаси бош ҳисобчи ввб Т.Мирзаматовга юклатилсин.

Т.Мирзаматов



Э.Рузиев



М.Азимова



Р.Бозорбоев



М.Комолжонов

